

Tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning ahamiyati

Dinara Nosirova
TMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida zamonaviy va masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning ilmiy-nazariy asoslari va O'zbekistonda zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning iqtisodiy ahamiyati o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, zamonaviy bank xizmatlari, internet-banking, raqamli banking, onlayn banking

Importance of providing modern banking services in commercial banks

Dinara Nosirova
Tashkent Institute of Finance

Abstract: In this article, the scientific-theoretical basis of providing modern and remote banking services in commercial banks and the economic importance of providing modern banking services in Uzbekistan are studied.

Keywords: bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, zamonaviy bank xizmatlari, internet-banking, raqamli banking, onlayn banking

KIRISH

Hozirgi davrdagi tezkor va shiddatli rivojlanish hamda iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar davrida raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lган bir qancha ilg'or raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Shu sababli aholining turmush tarzini yanada yaxshilash va osonlashtirish, kompyuterlashtirish va mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublikamiz rahbariyati bir qancha qarorlarni qabul qildi va "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini

avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e’tibor berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; nazorat yuklarini, shu jumladan banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklarni kamaytirish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamlı identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamlı bank) ” kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid bir qator olimlarning tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga odi fikr mulohazalari tahlil qilindi.

XX asrning 60-70 - yillari bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas Michigan universitetining “Kreditlash sohasidagi bank siyosati” (1971 y.), D.Revel Uels universitetining «Raqobat va bank faoliyatini boshqarish» (1978 y.), Jeneva universitetining «Jam‘arma banklarining kredit xizmatlari» (1974 y.) tadqiqotlari, Sh.Dereyning «Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat» asari (1977 y.) xamda G.Brayanning «Bank sohasidagi raqobat» tadqiqoti (1970 y.) chop etiladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilnichenkoning fikricha «Bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish bu informasion xizmatlarning kompleksi va mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni uning bankka tashrif buyurmasdan bergen topshirig‘iga asosan bajarishdir. Bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi telekommunikatsiya tizimi orqali bankning ma’lumotlar bazasiga mijozning murojaatiga asoslanadi¹

N.I.Lixodeyeva esa bank hisob-varag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimini mijoz tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bankka tashrif

¹ Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).

buyurmasdan ya'ni masofadan buyurtmalar asosida bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi sifatida e'tirof etgan².

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari - bu mijozning masofadan bergen topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalari sifatida ta'rif berish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli banking - bu onlayn banking va mobil bankingning kombinatsiyasi. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish xarajatlaringizni kamaytirishga yordam beradi, chunki bu nafaqat pulingizni, balki vaqtingizni ham tejaydi.

Onlayn banking - bu o'z qurilmangizdan bank veb-sayti orqali bank xizmatlaridan foydalanishni anglatadi. Bu sizning balansingizni tekshirish va bank hisobingizga kirish orqali elektr to'lovini to'lash imkonini beradi. Siz o'zingizning onlayn-banking portalingiz orqali ko'plab banklarda kredit yoki kredit karta uchun ariza berish kabi qo'shimcha bank xususiyatlariga kirishingiz mumkin.

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefonidan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lismumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinushi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:


- ❖ to'lovlarni o'tkazish;

² Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - №2. – С. 23-27.

❖ to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;

❖ barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi.


Internet-banking mijozga o'zining ish joyidan turgan holda internet orqali kerakli bank saytiga ulanib, o'z hisob-raqamidan pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi va o'z hisob-raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi mumkin bo'ladi.



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni³, (2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Yuqoridagi rasmida ko'rish mumkinki, 2022-yilda 2020-yilga qaraganda 2 barobar ko'p foydalanuvchi bo'lgan. Ayniqsa, pandemiya sharoitida foydalanuvchilar soni keskin oshgan.

Mobil ilovalardan foydalanish uchun avvalo, ixtiyoriy bankdan o'z nomiga rasmiylashtirilgan bank kartasini olish taqozo etiladi (agar bank kartasi mavjud bo'lmasa). Hozirda tijorat banklari tomonidan ikki turdag'i (HUMO va UZCARD) bank kartalari emissiya qilinmoqda.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar soni⁴, (2023-yil 1-yanvar holatiga)

³ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

⁴ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Jismoniy shaxslar tomonidan bank kartasi olish va mobil ilova orqali xaridlarni amalga oshirish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

- plastik kartani olish uchun o‘zi tanlagan bankka pasport bilan murojaat qilish (onlayn tarzda tijorat banklarning rasmiy veb-saytlari orqali ham buyurtma berish imkoniyati mavjud)
- bank kartasini pul mablag‘lari bilan to‘ldirish (bankomatning “cash-in” funksiyasi yoki bank xizmatlari markazlariga tashrif buyurish orqali);
- bankka tashrif buyurib yoxud bankomat va infokiosklar orqali bank karta hisobvarag‘ini o‘z mobil telefon raqamiga bog‘lash (biriktirish) orqali sms-xabarnoma yoki telegram-xabarnoma xizmatini faolashtirish;
- tijorat banklari yoki to‘lov tashkilotlari mobil ilovalarini Android operatsion tizimli mobil telefon uchun “Google Play market” internet ilovasidan yoki iOS operatsion tizimli mobil telefon uchun “Appstore” internet ilovasidan yuklab olish (ro‘yxat ilova qilinadi);
- mazkur mobil ilovalarda ro‘yxatdan o’tish, ya’ni olingan bank karta raqami va amal qilish muddati kiritilgandan so‘ng mobil telefonga kelgan maxfiy kodni kiritish orqali identifikatsiyadan o’tish;
- xavfsizlikni ta’minalash maqsadida mobil ilovaga kirish uchun maxfiy kodni o‘rnatish.

Mazkur amallarni bajarish uchun hech qanday bank xizmati bo‘yicha vositachilik haqi olinmaydi.

1994 yil 13 iyul kuni Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilindi. Unga asosan banklar qator soliqlardan ozod qilindi va bo‘sagan mablag‘larni o‘z faoliyatini kompyuterlashtirishga sarflash shart qilib qo‘yildi. Mazkur Qarorlarga binoan tijorat banklarining bo‘limlari kompyuterlashtirila boshlandi va ular elektron to‘lov tizimiga qo‘shib borildi. Avgust oyi oxiriga kelib mustaqillikning uch yilligi sharafiga elektron to‘lovlar vaqtinchalik Nizomi yaratildi. Oktyabr oyidan boshlab esa elektron pochta respublika bank tizimida ishga tushirildi. Respublika bank tizimida buxgalteriya hisob-kitoblarni va bank amaliy ish kunini umumiylar bir ko‘rinishga keltirish uchun zarur ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3945-sonli qaroriga asosan Milliy banklararo protsessing markazi 2018 yilning IV-choragida tashkil etildi va “Humo” to‘lov tizimi 2019 yilning I-choragidan boshlab ishga tushirildi.

Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni (11.11.2019 y., O‘RQ-582);

- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (05.11.2019 y., O'RQ-580);
- O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni (01.11.2019 y., № O'RQ-578);
- "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Yevropada bugungi kunda ko'pchilik onlayn-banking xizmatidan foydalanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Yevropada katta yoshlilarning 70 foizi kamida oyiga bir marta o'zlarining onlayn bank hisoblariga kirishadi. Ba'zi Yevropa mamlakatlarida kattalarning 90 foizi internet-banking xizmatidan foydalanadi. Darhaqiqat, so'nggi 12 yil ichida internet-banking xizmatidan muntazam foydalananayotganlar soni ikki baravar ko'paydi⁵.

Yevropaliklar o'zlarining tranzaksiya tarixini tekshirish, pul mablag'larini bir hisobdan ikkinchisiga o'tkazish, balanslarini tekshirish va to'lovlarni amalga oshirish uchun raqamli bankingdan muntazam foydalanadilar. Onlayn banklar tobora ilg'or xizmatlar va moliyaviy mahsulotlarni taklif qilar ekan, odamlar kredit olish, sarmoya kiritish va moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish uchun internet-bankingdan foydalanmoqda.

Yevropada bank tizimi Bazel III xalqaro standartlari asosida yuritiladi. Bazel III 2007-2009 yillardagi moliyaviy inqirozga javoban Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro miqyosda kelishilgan chora-tadbirlar majmui. Ushbu chora-tadbirlar banklar faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va risklarni boshqarishni kuchaytirishga qaratilgan. Bazel asosi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (BCBS) standartlarining to'liq to'plami bo'lib, u banklarni prudensial tartibga solishning asosiy global standarti hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiyligi ta'sirini ko'rsatadi. Shunday zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy bank xizmatlari, xususan Internetbanking

⁵ <https://money-gate.com/europeans-top-online-banks/>

xizmatining faol joriy etilishi eng muhim masala ekanligi shubhasiz. Jumladan, mamlakatning qay darajada iqtisodiy va texnologik taraqqiy topganligi masofaviy bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda muhim hisoblanadi. Xususan, bank operatsion xarajatlarining barqaror darajasiga erishish uchun tijorat banklarida ham masofaviy bank xizmat turlarini ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabioytlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF -5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil.
2. Спильниченко В.К. Трансформатсия банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
3. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организаций. – 2014. - №2. – С. 23-27.
4. Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich. Raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidligini tartibga solish. 2019 yil. PhD dissertatsiya. 22-42 betlar.
5. Saidqulov Murod Hayitboy o'g'li. Elektron bank xizmatlarini rivojlantirish va bank ishini avtomatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Magistr dissertatsiyasi. 2021 yil. 24-66-77- betlar.
6. SHERALI SULTONOV, SHERZOD ALILOV, JASUR RAZZAKOV, KHUSAN ISAEV. DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF "TASHKENT" REPUBLICAN STOCK EXCHANGE). Journal of Critical Reviews.2020
7. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
8. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021
9. Мутабар Жураевна Темирханова, Хусан Баходирович Зарипов, Ли Шаоминь. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире. Бюллетень науки и практики, 2020
10. УЮ Ўроқов, ФШ Сулаймонов. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида электрон ахборот алмашишнинг аҳамияти ва уни такомиллаштириш масалалари. 2014/9
11. Uchqun Yunusovich O'rroqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022

12. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021
13. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
14. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: MChJ "RAM-S", 2007
15. ТС Маликов, НХ Ҳайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009
16. Т.Маликов, Н.Ҳайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
17. Т.С. Маликов, Н.Х. Ҳайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
18. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Trends in the Development of the Tax System of the Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022
19. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Current state of taxation of commercial banks in our country. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. 2022/11/1
20. Зарипов Хусан Баходирович. Методологический конструктив налогового анализа влияния системы налогообложения на деятельность хозяйствующего субъекта. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке» 2021/11
21. Хусан Зарипов. Налоговое планирование предприятий в Республике Узбекистан. Общество и экономика, 2019
22. ОА Шодиев. Особенности применения упрощенной системы налогообложения в Узбекистане. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук.2017
23. Olimjon Shodiev. Excise tax: general and special. Академические исследования в современной науке. 2022/12/5
24. ОА Шодиев. Акцизное налогообложение в Узбекистане: общее и особенное. Экономика и бизнес: теория и практика. 2022
25. ОА Шодиев. Акцизный налог в Узбекистане: особенности и проблемы современного развития. Экономика и бизнес: теория и практика. 2021
26. U O'rroqov, Zulayho Abdujobir qizi Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. Science and Education, 2022
27. У.Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education, 2022
28. У.Ю.Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали, 2020 й. 4-сон.

29. У Уроков. Max, аллий бюджетлар мустакиллигини оширишнинг устувор йуналишлари. *Science and Education*" Scientific Journal/ISSN. 2022/6
30. У.Ю.Ўроқов. Қишлоқ хўжалиги субъектларини солик имтиёzlари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015
31. U O'roqov, Zulayho Abdujobir qizi Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. *Science and Education*. 2022/6/30
32. U.Yu.O'roqov. Davlat xaridi. О 'quv qo 'llanma. Т.:«Nihol print» OK, 2022
33. У.Ўроқов. Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари. 2017
34. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш масалалари.2014
35. Uchqun O'roqov, Javohir Yomg'Irov. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari. *Science and Education*, 2022
36. У Ўроқов. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. 2017
37. У Ўроқов. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш масалалари. 2014
38. Uchqun Yunusovich O'roqov, Farzona Axmadqul Qizi Abduazimova. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiyiyqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. *Science and Education*. 2022
39. УЮ Уроков, КР Чинкулов. Узбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг хукукий асослари. Халкаро молия ва хисоб» журнали. 2017
40. УЮ Уроков. К, ишлок хўжалиги субъектларини солик имтиёzlари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015
41. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. *Journal of Hunan University (Natural Sciences)*. 2021/12
42. У Уроков. Узбекистон Республикасининг бюджет кодекси: мохияти, ахамияти ва афзалликлари. Молия" журнали, 2014
43. У Уроков. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. 2020
44. Sherali Sultonov, Nodira Soatova. Factors strengthening the tax base of local budgets. *Journal of Hunan University*. Vol. 49. No. 12 December 2022